

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

MAHALLALARDA IJTIMOY XIZMATLARNI KO'RSATISH VA IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ OILALARGA YORDAM BERISH TIZIMINI YANGI BOSQICHGA KO'TARISH HAMDA XOTIN-QIZLARNI KASBGA O'RGATISH ISHLARINI YANADA JADALLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Mahallalarda ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etish ishlarini kompleks tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga "oilabay" yondashuv tizimini joriy etish, ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning soni va sifatini oshirish, bunga javobgar bo'lgan vazirlik va idoralarning mas'uliyatini kuchaytirish hamda xotin-qizlarni kasbga o'qitish tizimini yanada jadallashtirish maqsadida:

1. 2022-yil 1-iyuldan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi Mahallalarda kompleks yondashuv asosida ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinsin, bunda:

a) mahallalardagi xotin-qizlar faollariga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

har bir xonadon ahvolini o'rganib, oilalardagi haqiqiy holat va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

ijtimoiy yordamga muhtoj har bir oilani individual ijtimoiy himoya qilish rejasini ishlab chiqish;

aholi murojaatlari asosida va ijtimoiy himoya rejasining ijrosini o'rganish jarayonida ijtimoiy xizmatlarning o'z vaqtida va sifatli ko'rsatilishini doimiy nazorat qilib borish;

murakkab va yuqori texnologik tibbiy amaliyotlarga, nogironligi bo'lgan shaxslarning protez-ortopediya buyumlariga va shu kabi boshqa ijtimoiy xizmatlarga oilalarning ehtiyoji bo'yicha tavsiyalar va buyurtmalar berish;

ijtimoiy himoyaga mas'ul barcha idoralar tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi ustidan monitoring olib borish;

b) Mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha respublika shtabi (keyingi o'rinlarda — Muvofiqlashtirish shtabi) [1-ilovaga](#) muvofiq tashkil etilsin va unga ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida quyidagi vazifalar yuklatilsin:

oilalardagi ijtimoiy muammolarni hal etishda kompleks yondashuv tizimini yo'lga qo'yish;

oilalardagi ijtimoiy muammolarni aniqlash uchun xotin-qizlar faoli bilan hamkorlik qilish;

oilalarni iqtisodiy nochor ahvoldan chiqarish va mehnat orqali barqaror daromad manbai bilan ta'minlash choralari ko'rish;

sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish hamda tibbiy yordamga muhtoj oilalarga o'z vaqtida sifatli tibbiy ko'mak ko'rsatilishini tashkillashtirish;

yuridik ko'mak ko'rsatish va huquqbuzarliklarning oldini olish choralari ko'rish.

Muvofiqlashtirish shtabining ishchi organi etib Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi belgilansin.

Muvofiqlashtirish shtabi bir hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman (shahar)larda mutasaddi vazirlik, idora va Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari mas'ul xodimlaridan iborat Mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy shtabi (keyingi o'rinlarda — Hududiy shtab) faoliyatini tashkil etsin.

Hududiy shtablar mahallardagi xotin-qizlar faollari tomonidan fuqarolarning ijtimoiy muammolari bo'yicha kiritilgan tavsiyalar va buyurtmalarning o'z vaqtida ko'rib chiqilishi va tegishli xizmatlarning ko'rsatilishiga mas'ul etib belgilansin.

2. Belgilab qo'yilsinki, 2022-yil 1-noyabrga qadar:

a) mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan har ikki haftada Hududiy shtablarga quyidagi ma'lumotlar kiritib boriladi:

mahallalarda xonadonlar ahvoli, oilalardagi haqiqiy holat asosida ularning ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji;

mahallalardagi oilalarni o'rganish natijalari bo'yicha ularga aniq ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lumotlar;

murakkab va yuqori texnologik operatsiyalarga, nogironligi bo'lgan shaxslarning protez-ortopediya buyumlariga va shu kabi boshqa ijtimoiy xizmatlarga oilalarning ehtiyoji bo'yicha tavsiyalar va buyurtmalar;

mahallalarda xonadonlar ahvolini kuzatib borish hamda aholi murojaatlari asosida ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatilishining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi bo'yicha ma'lumot;

b) Hududiy shtablar mahallalardagi xotin-qizlar faollaridan kelib tushgan ma'lumotlarni o'z hududi kesimida umumlashtirgan holda ikki kun muddatda ularni Muvofiqlashtirish shtabiga yuboradi;

v) Muvofiqlashtirish shtabi kelib tushgan ma'lumotlar asosida uch kun muddatda haqiqatda ijtimoiy xizmatga ehtiyojmand bo'lgan oilalarga Hududiy shtab a'zosining mas'ul xodimi tomonidan manzilli ijtimoiy xizmat ko'rsatilishini tashkillashtiradi.

3. Moliya vazirligi (T. Ishmetov) Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova) hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Shermatov) bilan birgalikda YUNISEFning O'zbekistondagi Vakolatxonasi tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy, texnik va ekspert ko'magi asosida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi negizida "Mahallada ijtimoiy xizmat" avtomatlashtirilgan maxsus elektron modulini (keyingi o'rinlarda — "Mahallada ijtimoiy xizmat" moduli) 2022-yilning 1-avgustiga qadar ishlab chiqsin va uning ishga tushirilishini ta'minlasin.

Belgilansinki, "Mahallada ijtimoiy xizmat" moduli:

mahallalarda oilalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida amalga oshirish bo'yicha maxsus elektron dasturiy ta'minot hisoblanadi;

foydalanuvchisi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi hisoblanadi;

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimining tarkibiy qismi bo'lib, uning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, takomillashtirish hamda texnik qo'llab-quvvatlash Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi;

mahallalarda davlat ijtimoiy xizmatini yoki yordamini ko'rsatishda davlat organlari va tashkilotlarining idoralararo elektron hamkorligini amalga oshirishga xizmat qiladi.

4. Belgilansinki:

a) 2022-yil 1-avgustdan boshlab, dastlab Surxondaryo viloyatining mahallalarida "Mahallada ijtimoiy xizmat" moduli orqali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi joriy etiladi.

Bunda, Surxondaryo viloyatining mahallalaridagi xotin-qizlar faollari YUNISEFning O'zbekistondagi Vakolatxonasining grant mablag'lari hamda Surxondaryo viloyati mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan planshetlar bilan ta'minlanadi;

b) 2022-yil 1-noyabrdan boshlab, respublikaning boshqa barcha mahallalarida "Mahallada ijtimoiy xizmat" moduli orqali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi to'liq joriy etiladi.

Moliya vazirligi hamda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash" loyihasi doirasida ajratilgan imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan xarid qilinadigan planshetlarni "Mahallada ijtimoiy xizmat" moduli orqali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida mahallalardagi xotin-qizlar faollariga taqdim etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi Z.B. Maxkamova va moliya vaziri o'rinbosari J.I. Abruyev mazkur bandeda belgilangan vazifalarni samarali va to'laqonli amaliyotga tatbiq etish bo'yicha shaxsan mas'ul ekanligi belgilab qo'yilsin.

5. Belgilansinki, mahallalarda xotin-qizlar faollari orqali "Mahallada ijtimoiy xizmat" modulini joriy etishning quyidagi uch bosqichini nazarda tutuvchi tartib belgilanadi:

a) birinchi bosqichda — “Mahallada ijtimoiy xizmat” moduli doirasida mahallalarda ijtimoiy xizmatlarga muhtoj bo'lgan oilalarning ehtiyojmandlik darajasi avtomatlashtirilgan tarzda obyektiv qaror qabul qilish orqali baholanadi.

Bunda, oilalarning ma'lum bir turdagi davlat ijtimoiy xizmatiga bo'lgan ehtiyoji fuqarolardan qo'shimcha hujjatlar talab etmagan holda so'rovnoma tarzda baholash mezonlariga muvofiq aniqlanadi;

b) ikkinchi bosqichda — “Mahallada ijtimoiy xizmat” modulida har bir ijtimoiy xizmatga muhtoj bo'lgan oilalar uchun individual ijtimoiy rejalar tuziladi.

Bunda, individual ijtimoiy rejalar oilalarga kompleks yoki ma'lum bir turdagi ijtimoiy xizmat ko'rsatilishiga qarab tuziladi;

v) uchinchi bosqichda — individual ijtimoiy rejalar muvofiq oilalarga ijtimoiy xizmatlarning ko'rsatilishi jarayoni “Mahallada ijtimoiy xizmat” moduli orqali monitoring qilinadi.

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova) Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi (S. Turdiyev), Moliya vazirligi (T. Ishmetov) hamda boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda yangi tizim asosida muhtoj oila va fuqarolarning muammolarini kompleks o'rganish va ularni hal etishga ko'maklashish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga maqsadli yordam berish ishlarining mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan tashkil etilishini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

6. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova):

Moliya vazirligi (T. Ishmetov) bilan birgalikda 2022-yil 1-noyabrga qadar planshetlarni “Mahallada ijtimoiy xizmat” modulidan foydalanilish dasturiy ta'minoti bilan ta'minlash choralarini ko'rsin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan birgalikda joylarda “Mahallada ijtimoiy xizmat” modulining samarali ishlashini va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga yangi tizim asosida ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini mahalla darajasida muvofiqlashtirib borsin.

7. Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko'tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish ishlarini yanada jadallashtirish bo'yicha “yo'l xaritasi” [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

8. Xotin-qizlarni, eng avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar tarkibidagi xotin-qizlarni kasb-hunarga o'rgatish orqali ularni iqtisodiy nochor qatlamdan chiqarish hamda ular orasidagi ishsizlik darajasini kamaytirish maqsadida quyidagilar tasdiqlansin:

a) quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitish tartibi to'g'risidagi nizom [3-ilovaga](#) muvofiq:

xotin-qizlarni kasbga o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish;

davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitishga yo'naltirish;

davlat buyurtmasi asosida kasbga o'qitilgan xotin-qizlarning malaka darajasini baholash va ularga malaka sertifikatini berish;

xotin-qizlarni kasbga o'qitishni moliyalashtirish;

b) 2022-2023-yillarda xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish va ularning bandligini ta'minlash prognoz ko'rsatkichlari [4-ilovaga](#) muvofiq;

v) quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat buyurtmasi asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchi sinf, akademik litsey va professional ta'lim muassasalarining bitiruvchi kurs o'quvchi-qizlarini axborot texnologiyalari yo'nalishlarida qo'shimcha kurslarda o'qitish tartibi to'g'risidagi nizom [5-ilovaga](#) muvofiq:

o'quvchi-qizlarni axborot texnologiyalari bo'yicha qo'shimcha kurslarda o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish;

davlat buyurtmasi asosida o'quvchi-qizlarni axborot texnologiyalari bo'yicha qo'shimcha kurslarda yo'naltirish;

davlat buyurtmasi asosida qo'shimcha kursda o'qitilgan o'quvchi-qizlarning malaka darajasini baholash va ularga malaka sertifikatini berish;

o'quvchi-qizlarni qo'shimcha kursga o'qitishni moliyalashtirish.

9. Belgilab qo'yilsinki:

mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan xotin-qizlarni kasbga o'qitish bilan bog'liq xarajatlar Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan hamda tegishli vazirlik va idoralarning ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Bunda, nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'quv kurslarini tamomlagan har bir bitiruvchi xotin-qizga kasbga o'qitish uchun sarflangan xarajatlarning 70 foizi, biroq har bir bitiruvchiga bazaviy hisoblash miqdorining 4 barobaridan oshmagan miqdori davlat tomonidan qoplab beriladi;

bitiruvchi kurs o'quvchi-qizlarni qo'shimcha kurslarga o'qitish bilan bog'liq xarajatlar Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Bunda, axborot texnologiyalari yo'nalishida nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'qigan va tegishli malakaga ega bo'lgan o'quvchi-qizlarni o'qitish xarajatlarning 70 foizi, biroq har bir bitiruvchiga bazaviy hisoblash miqdorining 4 barobaridan oshmagan miqdori davlat tomonidan qoplab beriladi;

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi kasb-hunarga o'qitish markazlarining bo'sh turgan bino-inshootlari tadbirkorlik subyektlariga nodavlat ta'lim tashkilotlari va "O'quv-ishlab chiqarish poligoni"ni tashkil etish hamda xotin-qizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning bandligiga ko'maklashish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda ijaraga beriladi;

xotin-qizlarni kasb-hunarga tayyorlash faoliyatini amalga oshiruvchi muhandis-ustalarning malakasi xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda oshirib boriladi.

10. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bir oy muddatda "Bandlik xizmati" axborot tizimida xotin-qizlarni kasbga o'qitish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi alohida modul ishlab chiqsin:

xotin-qizlarning o'quv yo'nalishlari, o'qish muddatlari, kasbga o'qitish kurslaridagi davomati;

xotin-qizlarga ajratilgan mablag'lar (subsidiya, stipendiya), ularning o'qishni tugatgan vaqti hamda bandligi holati kabi ma'lumotlar.

11. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova) bir oy muddatda:

Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti hamda YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan kelishgan holda mahallalardagi xotin-qizlar faollarini "Mahallada ijtimoiy xizmat" modulida ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish" mavzusidagi o'quv-kurslarida o'qitish, shu jumladan ularga masofaviy tarzda seminarlarni tashkil etish choralarini ko'rsin;

Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan birgalikda mahallalardagi xotin-qizlar faollari hamda ijtimoiy himoyaga mas'ul vazirlik va idoralarning mutaxassislarida kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishga oid bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida an'anaviy va masofaviy o'quv kurslarini tashkil qilish choralarini ko'rsin.

Belgilansinki, o'quv kurslari va seminarlarni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi hamda qonunchilik bilan taqiqlanmagan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

12. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (O. Xasanov) Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova) bilan birgalikda mahallalardagi xotin-qizlar faollarini:

ish faoliyati natijalariga ko'ra Milliy kadrlar zaxirasiga kiritib borsin;

ikki yillik mehnat faoliyatining ijobiy natijalarini hisobga olgan holda ularning xizmat pog'onasini ko'tarish bo'yicha vazirlik va idoralar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga takliflar kiritib borsin.

13. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova) ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga kompleks yondashuv tizimi asosida yordam berish ishlarini tashkil qilish va takomillashtirishda keng

jamoatchilik, shu jumladan fuqarolik jamiyati institutlari, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan hamkorligini yo'lga qo'ysin.

14. Belgilansinki, mas'ul vazirlik va idoralar bo'linmalari tomonidan tegishliligi bo'yicha kelib tushgan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish to'g'risidagi yo'llanmalar o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, tegishli ijtimoiy xizmatlarning to'laqonli ko'rsatilishiga mas'ul vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari shaxsan javobgar hisoblanadi.

15. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston milliy axborot agentligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun va mohiyati, ahamiyati hamda vazifalarini ommaviy axborot vositalarida va Internet tarmog'ida keng yoritish ishlarini tashkil qilsin.

16. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi bir oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari J.A. Qo'chqorov va Z.B. Maxkamova zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har olti oy yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib borilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 29-iyun,
PQ-300-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi
PQ-300-son qaroriga
1-ILOVA

Mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika shtabi

TARKIBI

1. J.A. Qo'chqorov — Bosh vazir o'rinbosari, *Shtab rahbari*
2. Z.B. Maxkamova — Bosh vazir o'rinbosari — Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining raisi, *Shtab rahbarining o'rinbosari*
3. S. Turdiyev — Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirining birinchi o'rinbosari
4. S.B. Artikova — Bosh prokuror o'rinbosari
5. B.T. Abdullayev — Ichki ishlar vaziri o'rinbosari
6. J.I. Abruyev — Moliya vaziri o'rinbosari
7. M.M. Mirzayev — Davlat soliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari
8. M.M. Ikramov — Adliya vaziri o'rinbosari
9. E.I. Basitxanova — Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari
10. A.K. Inakov — Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi direktori
11. Lavozimi bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari

Izoh. Shtab a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi
PQ-300-son qaroriga
2-ILOVA

Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko'tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish ishlarini yanada jadallashtirish bo'yicha

"YO'L XARITASI"

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish				
1.	Mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha respublika shtabi faoliyatini tashkil etish.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman (shahar)larda mutasaddi vazirlik, idora va Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari mas'ul xodimlaridan iborat Mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy shtabi faoliyatini tashkil etish.	Bir hafta muddatda	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi <i>(J. Qo'chqorov),</i> Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi <i>(Z. Maxkamova)</i> Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
2.	Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi negizida "Mahallada ijtimoiy xizmat" avtomatlashtirilgan maxsus elektron moduli faoliyatini tashkil etish.	"Mahallada ijtimoiy xizmat" moduli asosida: mahallalarda oilalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish; mahallalarda davlat ijtimoiy xizmatini yoki yordamini ko'rsatishda davlat organlari va tashkilotlarining idoralararo elektron hamkorligini amalga oshirish.	2022-yilning 1-avgustiga qadar	Moliya vazirligi <i>(T. Ishmetov),</i> Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi <i>(Z. Maxkamova),</i> Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi <i>(Sh. Shermatov)</i>
3.	Surxondaryo viloyatining mahallalarida "Mahallada ijtimoiy xizmat" moduli orqali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi joriy etish.	Surxondaryo viloyatining mahallalaridagi xotin-qizlar faollarini YUNISEFning O'zbekistondagi Vakolatxonasining grant mablag'lari hamda Surxondaryo viloyati mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan planshetlar bilan ta'minlash.	2022-yil 1-avgustdan boshlab	Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi <i>(Z. Maxkamova),</i> Moliya vazirligi <i>(J. Abruyev),</i> Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, YUNISEFning O'zbekistondagi Vakolatxonasi (kelishuv asosida)

4.	Respublikaning barcha mahallalarida "Mahallada ijtimoiy xizmat" moduli orqali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi to'liq joriy etish.	Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash" loyihasi doirasida ajratilgan imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan planshetlarni xarid qilish hamda ularni "Mahallada ijtimoiy xizmat" moduli orqali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida mahallalardagi xotin-qizlar faollariga taqdim etish.	2022-yil 1-noyabrdan boshlab	Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova), Moliya vazirligi (J. Abruyev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, YUNISEFning O'zbekistondagi Vakolatxonasi (kelishuv asosida)
5.	Yangi tizim asosida muhtoj oila va fuqarolarning muammolarini kompleks o'rganish va ularni hal etishga ko'maklashish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga maqsadli yordam berish ishlarining mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan tashkil etilishini yo'lga qo'yish.	Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish hamda Vazirlar Mahkamasiga o'rnatilgan tartibda kiritish.	Bir oy muddatda	Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova), Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi (S. Turdiyev), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), manfaatdor vazirlik va idoralar
6.	Planshetlarni "Mahallada ijtimoiy xizmat" modulidan foydalanilish dasturiy ta'minoti bilan ta'minlash.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan birgalikda joylarda "Mahallada ijtimoiy xizmat" modulining samarali ishlashini va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga yangi tizim asosida ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini mahalla darajasida muvofiqlashtirib borish.	2022-yil 1-noyabrga qadar	Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Shermatov)

7.	Yangi tizim asosida Mahallalarda xotin-qizlar faollari hamda ijtimoiy himoyaga mas'ul vazirlik va idoralarning mutaxassislarida tegishli ko'nikmalarni shakllantirish.	<p>1. Mahallalarda xotin-qizlar faollarini "Mahallada ijtimoiy xizmat" modulida ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish" mavzusidagi o'quv-kurslarida o'qitish, shu jumladan ularga masofaviy tarzda seminarlarni tashkil etish choralarini ko'rish.</p> <p>2. Mahallalarda xotin-qizlar faollari hamda ijtimoiy himoyaga mas'ul vazirlik va idoralarning mutaxassislarida kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishga oid bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida an'anaviy va masofaviy o'quv kurslarini tashkil qilish choralarini ko'rish.</p>	Bir oy muddatda	Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova), Moliya vazirligi (J. Abruyev), YUNISEFning O'zbekistondagi Vakolatxonasi (kelishuv asosida), manfaatdor vazirlik va idoralar
II. Xotin-qizlarni kasbga o'rgatish ishlarini yanada jadallashtirish				
8.	"Bandlik xizmati" axborot tizimida xotin-qizlarni kasbga o'qitish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi alohida modul ishlab chiqish.	<p>Quyidagilarni nazarda tutish:</p> <p>xotin-qizlarning o'quv yo'nalishlari, o'qish muddatlari, kasbga o'qitish kurslaridagi davomati;</p> <p>xotin-qizlarga ajratilgan mablag'lar (subsidiya, stipendiya), ularning o'qishni tugatgan vaqti hamda bandligi holati kabi ma'lumotlar.</p>	Bir oy muddatda	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov)
9.	Mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan xotin-qizlarni kasbga o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirib borish.	Mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlari asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitish uchun kelgusi yilning I yarim yilligi uchun har yili dekabrga qadar, II yarim yilligi uchun har yili iyunga qadar davlat buyurtmasini shakllantirish.	Har yili iyun va dekabr oylarida	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov), Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

10.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchi sinf, akademik litsey va professional ta'lim muassasalarining bitiruvchi kurs o'quvchi-qizlarini axborot texnologiyalari yo'nalishlarida qo'shimcha kurslarda o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirib borish.	Umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, akademik litseylar va professional ta'lim muassasalarini bitiruvchi kurs o'quvchi qizlarini asosiy ta'lim jarayoniga ta'sir etmagan holda qisqa muddatli davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida axborot texnologiyalari bo'yicha tashkil etilgan ta'lim kurslarida o'qitish bo'yicha har yili dekabr oyida davlat buyurtmasini shakllantirish.	Har yili dekabr oyida	Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
-----	---	--	-----------------------	---

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi
PQ-300-son qaroriga
3-ILOVA

Davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlari asosida shakllantirilgan davlat buyurtmasiga muvofiq davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarni kasbga o'qitish hamda ularga malaka sertifikatini berishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari — davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar;

xotin-qizlarni kasbga o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasi (keyingi o'rinlarda — davlat buyurtmasi) — mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlari asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitish uchun beriladigan buyurtma.

3. Xotin-qizlarni kasbga o'qitish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

kasbi (mutaxassisligi) mavjud bo'lmaganda;

mavjud kasbiy ko'nikmalariga maqbul ish yo'qligi sababli kasbni (mutaxassislikni) o'zgartirish zarurati bo'lganda;

kasbiy ko'nikmalari mavjud bo'lmaganligi yoki yetarli bo'lmaganligi, kasbiga (mutaxassisligiga) doir talablar o'zgartirilganligi bois malaka oshirishi zarur bo'lganda;

avvalgi kasbi (mutaxassisligi) bo'yicha ish bajarish qobiliyati yo'qotilganda.

4. Xotin-qizlarni kasbga o'qitish:

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari hamda mahallalarda tashkil etilgan kasbga o'qitish maskanlarida;

vazirlik va idoralar tizimidagi professional ta'lim muassasalarida tashkil etilgan qisqa muddatli kasb-hunarga o'qitish kurslarida;

nodavlat kasb-hunarga o'qitish tashkilotlarida amalga oshiriladi.

2-bob. Davlat buyurtmasini shakllantirish

5. Davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitish ushbu Nizomga ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

6. Tuman (shahar) hokimliklari, aholi bandligiga ko'maklashish markazlari oila va xotin-qizlar bo'limlari bilan birgalikda kelgusi yilning I yarim yilligi uchun har yili 10-dekabrga qadar, II yarim

yilligi uchun har yili 10-iyunga qadar:

hududlarda faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat tashkilotlarining malakali kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'rganadi;

kasbga o'qitishga ehtiyoji bo'lgan xotin-qizlarning kasb yo'nalishlari kesimida davlat buyurtmasini ishlab chiqadi;

ishlab chiqilgan davlat buyurtmasini tasdiqlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha hududiy kengashlarga (keyingi o'rinlarda — hududiy kengashlar) taqdim etadi.

7. Hududiy kengashlar taqdim etilgan davlat buyurtmalarini umumlashtirib, tahlil qiladi va besh kun ichida tasdiqlaydi.

Davlat buyurtmasiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hududiy kengashlar tomonidan amalga oshiriladi.

3-bob. Davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitishga yo'naltirish

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari bilan birgalikda:

ushbu Nizomning **4-bandida** ko'rsatilgan kasbga o'qitish bo'yicha belgilangan ta'lim tashkilotlarining yillik o'qitish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'qitish taqsimotini ishlab chiqadi;

o'qitish taqsimotiga asosan ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarni kasbga o'qitish ishlarini tashkil etadi;

kasbga o'qitish jarayonlarini monitoring qilib boradi;

kasbga o'qitilgan xotin-qizlarning malaka darajasini baholash uchun Malakani baholash markazlariga yuboradi.

4-bob. Davlat buyurtmasi asosida kasbga o'qitilgan xotin-qizlarning malaka darajasini baholash

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari davlat buyurtmasi asosida davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasbga o'qigan xotin-qizlarning malaka darajasini baholash uchun ularning malakani baholash markazlariga, shu jumladan "Ishga marhamat" monomarkazlarida tashkil etilgan malakani baholash markazlariga yuborilishiga ko'maklashadi.

Bunda, nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasbga o'qigan xotin-qizlar malaka darajasini baholatish uchun o'zlari tegishli tartibda ixtiyoriy ravishda murojaat qilishi mumkin.

10. Malakani baholash markazlari tomonidan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrda PQ-4939-son qarori bilan tasdiqlangan Malaka darajalariga erishish **sxemasi** asosida kasbga o'qitilgan xotin-qizlar malakasi baholanadi;

baholashdan muvaffaqiyatli o'tgan xotin-qizlarga o'n kun ichida malaka sertifikatini beriladi.

5-bob. Xotin-qizlarni kasbga o'qitishni moliyalashtirish

11. Xotin-qizlarni kasbga o'qitish bilan bog'liq faoliyat Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan hamda tegishli vazirlik va idoralarning ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lari hisobidan tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida moliyalashtiriladi.

Bunda, nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'quv kurslarini tamomlagan har bir bitiruvchi xotin-qizga kasbga o'qitish uchun sarflangan xarajatlarning 70 foizi, biroq har bir bitiruvchiga bazaviy hisoblash miqdorining 4 barobaridan oshmagan miqdori davlat tomonidan qoplab beriladi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

12. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Davlat va nodavlat ta'lim
muassasalarida davlat buyurtmasi
asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitish

Davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitishni amalga oshirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Tuman (shahar) hokimliklari, aholi bandligiga ko'maklashish markazlari, oila va xotin-qizlar bo'limlari	<ol style="list-style-type: none"> Hududlarda faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat tashkilotlarining malakali kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'rganadi. Kasbga o'qitishga ehtiyoji bo'lgan xotin-qizlarning kasb yo'nalishlari kesimida davlat buyurtmasini ishlab chiqadi. Ishlab chiqilgan davlat buyurtmasini hududiy kengashlarga tasdiqlash uchun kiritadi. 	<p>Har yili 10-dekabrga qadar</p> <p><i>(kelgusi yilning I yarim yilligi uchun),</i></p> <p>Har yili 10-iyungacha qadar</p> <p><i>(II yarim yillik uchun)</i></p>
2-bosqich	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha hududiy kengashlari	<ol style="list-style-type: none"> Taqdim etilgan xotin-qizlarni kasbga o'qitish bo'yicha davlat buyurtmalarini umumlashtirib, tahlil qiladi. Davlat buyurtmasini tasdiqlaydi. 	5 kun ichida
3-bosqich	Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari	<ol style="list-style-type: none"> Tasdiqlangan davlat buyurtmasi asosida ta'lim tashkilotlarining yillik o'qitish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'qitish taqsimotini ishlab chiqadi. O'qitish taqsimotiga asosan ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarni kasbga o'qitish ishlarini tashkil etadi. Kasbga o'qitish jarayonlarini monitoring qilib boradi. Kasbga o'qitilgan xotin-qizlarning malaka darajasini baholash uchun malakani baholash markazlariga yuboradi. 	Doimiy ravishda
4-bosqich	Malakani baholash markazlari	<ol style="list-style-type: none"> Kasbga o'qitilgan xotin-qizlarning malakasini baholaydi. Baholashdan muvaffaqiyatli o'tgan xotin-qizlarga malaka sertifikatini beradi. 	10 kun ichida

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi
PQ-300-son qaroriga
4-ILOVA

2022-2023-yillarda xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish va ularning bandligini ta'minlash

PROGNOZ KO'RSATKICHLARI*

nafar

T/r	Hudud nomi	2022-2023-yilda bandligiga ko'maklashiladigan xotin-qizlar soni	shundan, quyidagilar hisobiga:

				Kasb-hunarga o'qitish		Tadbirkorlik ko'nikmalari va moliyaviy savodxonlikka o'qitish		Ishga joylashishga ko'maklashish		Haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish		Tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilishni rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratish	
		2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil
Respublika bo'yicha		383 565	444 215	81 271	111 994	7 490	8 240	185 684	203 956	80 683	88 748	28 437	31 277
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	24 423	29 203	4 131	6 782	420	462	12 926	14 319	5 830	6 413	1 116	1 227
2.	Andijon viloyati	43 434	47 071	7 350	7 480	754	829	25 447	27 892	7 044	7 748	2 839	3 122
3.	Buxoro viloyati	23 580	28 675	3 856	7 082	250	275	9 221	10 043	4 580	5 035	5 673	6 240
4.	Jizzax viloyati	22 088	24 725	5 080	6 115	236	260	7 151	7 766	8 916	9 808	705	776
5.	Qashqadaryo viloyati	29 381	33 533	7 518	9 482	482	531	11 454	12 601	7 312	8 043	2 615	2 876
6.	Navoiy viloyati	11 761	15 292	3 185	5 857	309	340	5 115	5 628	2 223	2 445	929	1 022
7.	Namangan viloyati	37 053	42 208	7 576	9 883	313	345	19 833	21 715	5 847	6 432	3 484	3 833
8.	Samarqand viloyati	35 218	40 790	6 310	8 992	272	299	18 260	20 086	8 263	9 089	2 113	2 324
9.	Surxondaryo viloyati	26 730	30 158	7 735	9 263	708	779	9 006	9 907	7 459	8 205	1 822	2 004
10.	Sirdaryo viloyati	18 444	21 937	4 576	6 683	44	48	7 189	7 908	5 442	5 986	1 193	1 312
11.	Toshkent viloyati	29 237	35 375	4 769	8 460	555	611	16 667	18 334	5 284	5 812	1 962	2 158
12.	Farg'ona viloyati	46 067	50 520	9 152	9 914	1 942	2 136	26 588	29 247	6 617	7 279	1 768	1 944
13.	Xorazm viloyati	23 949	28 601	5 835	8 675	1 108	1 219	10 998	12 098	4 255	4 681	1 753	1 928
14.	Toshkent shahri	12 200	16 127	4 198	7 326	97	106	5 829	6 412	1 611	1 772	465	511

Izoh:* Ushbu prognoz ko'rsatkichlari qonunchilikda belgilangan mexanizmlar asosida barcha manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Mehnat bozorida vaziyatdan kelib chiqib, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga prognoz ko'rsatkichlari yo'nalishlari va miqdor ko'rsatkichlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi
PQ-300-son qaroriga
5-ILOVA

Davlat buyurtmasi asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchi sinf, akademik litsey va professional ta'lim muassasalarining bitiruvchi kurs o'quvchi-qizlarini axborot texnologiyalari yo'nalishlarida qo'shimcha kurslarda o'qitish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom davlat buyurtmasi asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, akademik litseylar va professional ta'lim muassasalari bitiruvchi kurs o'quvchi-qizlarini asosiy ta'lim jarayonlaridan bo'sh vaqtlarda axborot texnologiyalari bo'yicha qo'shimcha kurslarda o'qitishni (keyingi o'rinlarda — qo'shimcha kurs) tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Axborot texnologiyalari bo'yicha qo'shimcha kurslar iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik yangilanishlarni hisobga olib, mehnat bozoridagi o'quvchi-qizlarning shu sohada o'z o'rnini topish va malakali kasb egalari bo'lishiga mo'ljallangan.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

o'quvchi-qizlar — umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchi sinf hamda kasb-hunar maktablari, akademik litseylar va professional ta'lim muassasalarining bitiruvchi kurs o'quvchi-qizlari;

qo'shimcha kurs — asosiy ta'lim jarayoniga ta'sir etmagan holda qisqa muddatli davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida axborot texnologiyalari bo'yicha tashkil etilgan ta'lim kursi.

4. O'quvchi-qizlarni qo'shimcha kurslarda o'qitish, o'z ixtiyoriga ko'ra ta'lim jarayonlariga ta'sir etmagan holda amalga oshiriladi.

5. O'quvchi-qizlarni qo'shimcha kurslarda o'qitish:

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlarida;

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda bo'ysunuviga ko'ra vazirlik va idoralar tizimidagi professional ta'lim muassasalarida;

nodavlat ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladi.

2-bob. Davlat buyurtmasini shakllantirish

6. O'quvchi-qizlarni axborot texnologiyalari yo'nalishlarida qo'shimcha kurslarda o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish ushbu Nizomga [ilovada](#) keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Xalq ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda tizimida professional ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan har yili 1-dekabr qadar:

o'quvchi-qizlarning manzilli ro'yxatiga asosan davlat buyurtmasi shakllantiriladi;

shakllantirilgan davlat buyurtmasini Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasiga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

8. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda har yili 10-dekabr qadar davlat buyurtmasini o'rganib chiqib, tasdiqlaydi.

3-bob. Davlat buyurtmasi asosida qo'shimcha kurslarga yo'naltirish

9. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi:

ushbu Nizomning [5-bandida](#) ko'rsatilgan kasbga o'qitish bo'yicha belgilangan ta'lim tashkilotlarining yillik o'qitish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga davlat buyurtmasi asosida o'quvchi-qizlarning o'zlariga qulay bo'lgan ta'lim tashkilotlarida o'qitish bo'yicha taqsimlaydi;

o'quvchi-qizlarni axborot texnologiyalari yo'nalishida o'qitishda qo'shimcha kurslarni tashkil etadi;

axborot texnologiyalari yo'nalishida o'qitishda uslubiy jihatdan ta'minlaydi va amalga oshirilishini monitoring qilib boradi.

4-bob. Davlat buyurtmasi asosida qo'shimcha kursga o'qitilgan o'quvchi-qizlarning malaka darajasini baholash

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari davlat buyurtmasi asosida davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha kurslarda o'qigan o'quvchi-qizlarning malaka darajasini baholash uchun ularning malakani baholash markazlariga, shu jumladan "Ishga marhamat" monomarkazlarida tashkil etilgan malakani baholash markazlariga yuborilishiga ko'maklashadi.

Bunda, nodavlat ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha kurslarda o'qigan o'quvchi-qizlar malaka darajasini baholatish uchun belgilangan tartibda o'zlari ixtiyoriy ravishda murojaat qilishi mumkin.

11. Malakani baholash markazlari tomonidan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi PQ-4939-son qarori bilan tasdiqlangan Malaka darajalariga erishish sxemasi asosida bitiruvchi o'quvchi-qizlar malakasi baholanadi;

baholashdan muvaffaqiyatli o'tgan bitiruvchi o'quvchi-qizlarga o'n kun ichida malaka sertifikatini beriladi.

5-bob. O'quvchi-qizlarni qo'shimcha kursda o'qitishni moliyalashtirish

12. Qo'shimcha kurslarda o'qitish bilan bog'liq faoliyat xarajatlari Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Bunda, axborot texnologiyalari yo'nalishida nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'qigan va tegishli malakaga ega bo'lgan o'quvchi-qizlarni o'qitish xarajatlarining 70 foizi, biroq har bir bitiruvchiga bazaviy hisoblash miqdorining 4 barobaridan oshmagan miqdori davlat tomonidan qoplab beriladi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

13. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Davlat buyurtmasi asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchi sinf, akademik litsey va professional ta'lim muassasalarining bitiruvchi kurs o'quvchi-qizlarini axborot texnologiyalari yo'nalishlarida qo'shimcha kurslarda o'qitish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)
ILOVA

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchi sinf, akademik litsey va professional ta'lim muassasalarining bitiruvchi kurs o'quvchi-qizlarini axborot texnologiyalari yo'nalishlarida qo'shimcha kurslarda o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tizimida professional ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar	<ol style="list-style-type: none"> Axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha o'quvchi-qizlarning manzilli ro'yxatini ishlab chiqadi hamda davlat buyurtmasini shakllantiradi. Davlat buyurtmasini Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga hamda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasiga tasdiqlash uchun taqdim etadi. 	Har yili 1-dekabr qadar
2-bosqich	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi	<ol style="list-style-type: none"> Taqdim etilgan davlat buyurtmalarini umumlashtirib, tahlil qiladi. O'quvchi-qizlarni qo'shimcha kurslarda o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasini tasdiqlaydi. 	Har yili 10-dekabr qadar
3-bosqich	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari,</p> <p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari</p>	<ol style="list-style-type: none"> Davlat buyurtmasi asosida o'quvchi-qizlarni o'zlariga qulay bo'lgan ta'lim tashkilotlarida o'qitish bo'yicha taqsimlaydi. O'quvchi-qizlarni axborot texnologiyalari yo'nalishida o'qitishda qo'shimcha kurslarni tashkil etadi. Axborot texnologiyalari yo'nalishida o'qitish bo'yicha uslubiy jihatdan ta'minlaydi va ularning amalga oshirilishini monitoring qilib boradi. 	Doimiy ravishda

		4. Ta'lim tashkilotlarida kursga o'qib tugatgan o'quvchi-qizlarni ularning malaka darajasini baholash uchun malakani baholash markazlariga yuborilishini ta'minlaydi.	
4-bosqich	Malakani baholash markazlari	<ol style="list-style-type: none">1. Malakani baholash markazlari bitiruvchi o'quvchi-qizlarning kasbiy malakasini baholaydi.2. Baholashdan muvaffaqiyatli o'tgan bitiruvchi o'quvchi-qizlarga malaka sertifikatini beradi.	10 kun ichida

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2022-y., 07/22/300/0573-son)